AHOLI DAROMADLARI VA ULARNING SHAKLLANISH MANBALARI.....	756
So'fiyeva Xusniya Soxibjonovna	
НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ И РАЗВИТИЮ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	760
Назарова Гулчебра Нурмуханбетовна	
СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ ПО ОЦЕНКЕ ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ	766
А.Р. Кудратов	
IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISH JARAYONIDA TASHKILYIY VA IQTISODIY MUNOSABATLAR	775
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION BIZNESNI BOSHQARISH VA YANGI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	780
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
GRUZIYA TAJRIBASIDA BARQAROR TURIZMNI TA'MINLASHNING TASHKILYIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLANILISHI	786
Suyunova Dilnoza Mexridin qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNING MINTAQADA XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI XUSUSIYATLARI	790
Fayziyeva Shirin Shodmonovna	
QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDA ETNOGRAFIK TURIZM KLASSTERINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	795
Kunnazarova Orazxan	
MAMALAKATIMIZ IMPORTI VA EKSPORTIDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI	798
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
YEVROOBLIGATSIYA VA UNING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN EMISSIYASI	807
Avezov Ibrohim Ilxomovich	



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	808
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELINING ZARURATI.....	813
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPIRIK TAHLILI	831
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
Raxmonova Nigina Anvarovna	
IJTIMOIIY SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
Bafojev Farrux Jo'raqulovich	
AHOLI IJTIMOIIY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
Ulashev Xubbim Askarovich	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
Raxshona Nabibullayeva	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
Toshev Akmal Salimovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOB I VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA’MINOT ZANJIRI MODELİ.....	1037
Safarov Xusan Samandar o‘g‘li, Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	



INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI



Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich

Namangan davlat universiteti,

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası dotsenti, DSc

ORCID: 0000-0003-0991-7336

E-mail: zuhraliabdulxakimov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish masalalari, innovatsiyalar orqali mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va undan samarali foydalanish jarayonida xorijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqotda mintaqalar kesimida innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor yo'nalishlari va amaliy mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: dunyo mamlakatlari, innovatsiya, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy kon'yunktura, innovatsion konsepsiya, ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsion nazariyalar, innovatsiya-mahsulot, innovatsiya-jarayon, novatsiya, yangi bilim, usul, ixtiro.

Abstract. This article examines the issues of sustainable development of an innovation-driven economy and analyzes ways to ensure the socio-economic development of countries and regions through innovations. The necessity of building an innovative economy and widely applying international best practices in the effective use of innovations is substantiated. Particular attention is paid to the implementation of innovations at the regional level and the identification of priority areas and practical mechanisms for their application.

Key words: world countries, innovation, innovative development, economic conjuncture, innovation concept, scientific and technological progress, innovation theories, product innovation, process innovation, novation, new knowledge, method, invention.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы устойчивого развития инновационной экономики, а также пути обеспечения социально-экономического развития стран и регионов на основе инноваций. Обоснована необходимость формирования инновационной экономики и эффективного использования зарубежного опыта в процессе внедрения инноваций. Особое внимание уделено применению инноваций на региональном уровне и определению приоритетных направлений их реализации.

Ключевые слова: страны мира, инновации, инновационное развитие, экономическая конъюнктура, инновационная концепция, научно-технический прогресс, инновационные теории, инновация-продукт, инновация-процесс, новация, новые знания, метод, изобретение.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy faolligiga ta'sir qiluvchi omillar olimlar, iqtisodiy tarixchilar, iqtisodchilar hamda siyosatchilarni doimo qiziqtirib kelgan bo'lib, ularning munozaralarida texnologiyalarning roli doimo birinchi o'rinda bo'lgan. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi zamonaviy nazariyalarining o'zagi hisoblangan iqtisodiy o'sish sabablari va omillarini tahlil qilish tarixi XIX asrning o'rtalaridan boshlanadi. Biroq, dastlab bu qarashlar faqat taxminlar darajasida bo'lgan.

1847-yilda ingliz olimi X. Klark 1793 va 1847-yillardagi ikki jahon urushi oralig'ida 54 yil o'tganini ta'kidlagan. U birinchi marta ushbu oraliq tasodifiy emasligi va bunday falokatlarni keltirib chiqaruvchi muayyan sabablar



mavjud bo'lishi mumkinligi haqida taxmin ilgari surgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Innovatsiya va ularning ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati haqidagi ilmiy tadqiqotlarning asoschilari sifatida N.D. Kondratev, Torsteyn Veblen, Y. Shumpeter, D. Messi, P. Kvintas, D. Uild, Saymon Kuznets, M. Tugan-Baranovskiy, G. Mensh, A. Klyaynknext, Van Dayn, A.I. Anchishkin, Yu. V. Yakoves va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari e'tirof etiladi. Ular o'z tadqiqotlarida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq nazariy hamda amaliy masalalarni atroflicha tahlil qilganlar.

Iqtisodiyotda yangi texnologiyalar va nou-xaularning yaratilishi masalalari Y. Shumpeter tomonidan, innovatsiyalarning diffuziyasi esa E. Rodgers, G. Tard hamda T. Xagerstrand tomonidan chuqur o'rganilgan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati K.R. Makkonnell hamda S.L. Bryu tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tanlangan tadqiqot davrida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsiyalarning o'rni hamda ularning rolini oshirishga doir xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish yo'llari ishlab chiqilgan. Dunyo mintaqalarida bugungi kundagi real holat yoritilib, ularning tajribalari asosida mamlakat mintaqalarida qo'llanishi mumkin bo'lgan ustuvor yo'nalishlar taqdim etilgan. Shuningdek, innovatsiyalardan keng foydalanish orqali mintaqalar iqtisodiyotiga ko'rsatiladigan ta'sir bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rus iqtisodchisi N.D. Kondratev birinchilardan bo'lib iqtisodiy kon'yunkturaning uzun to'lqinlari muammosi bilan qiziqqan va ular doirasida innovatsion jarayonlarni tadqiq etgan. Kondratev siklik inqirozlar hamda o'z tabiatiga ko'ra endogen bo'lgan uzun to'lqinlar o'rtasida qat'iy nisbat mavjudligini taxmin qilgan va keyinchalik uni ilmiy jihatdan asoslab bergan.

“Kondratev birinchi bo'lib iqtisodiyotning uzun to'lqinlar qonunlari asosida harakatlanishining obyektiv xususiyatini hamda biznes to'lqinlari sikllari ta'sirining umumiy tizimli xarakterini ko'rsatib bergan. Torsteyn Veblen esa 1915-yilda mamlakatlarning nisbiy iqtisodiy holatini taqqoslab, dastlabki sanoat afzalliklari bilan bog'liq bo'lgan noqulayliklarni tahlil qilgan” [1].

N.D. Kondratev nazariyasi ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanish shakllariga oid jihatlarda barcha zamonaviy innovatsion konsepsiyalarning asoschisi hisoblangan avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeterning uzun to'lqinli innovatsion nazariyasiga tayangan. Ijtimoiy fanlarning shakllanish davrida u uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganish uchun o'ziga xos yondashuv yaratish maqsadida iqtisodiyot, sotsiologiya va tarix fanlaridan g'oyalarni birlashtirgan, innovatsiyalarning muhim roli hamda ularga ta'sir etuvchi omillarga alohida e'tibor qaratgan.

Shu tariqa, u o'sha davrda shakllangan neoklassiklar maktabidan uzoqlashgan. Chunki Y. Shumpeterning ta'kidlashicha: “iqtisodiy hayot yuqori darajada inertdir... shuning uchun statik jarayonlar nazariyasi iqtisodiyotning nazariy asosining mohiyatini ifodalaydi... Men bu noto'g'ri ekanligini va iqtisodiy tizim ichida energiya manbai mavjudligini, u o'z-o'zidan har qanday erishilgan muvozanatni buzishi mumkinligini chuqur his qildim...” [2].

Innovatsiyaning o'ziga xos mazmunini, Y. Shumpeter ta'biri bilan aytganda, “o'zgarishlar” tashkil etadi, innovatsion faoliyatning asosiy funksiyasi esa “o'zgarishlarni boshqarish funksiyasi” hisoblanadi. Bu innovatsiyaga berilgan eng umumiy va keng talqindir. Shu nuqtai nazardan innovatsiyalar deganda “inson faoliyatining turli sohalariga ushbu faoliyat samaradorligini oshiruvchi yangi elementlar (turlar, usullar)ni kiritish” tushuniladi [3].

Garchi bunday “innovatsion amaliyot” ming yillar davomida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, innovatsiyalar faqat XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, innovatsiyalar nazariyasining asoslari shakllanayotgan davrda maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida qarala boshlandi.

“Innovatsiya” so'zi lotincha innovationem – innovare so'z birikmasidan kelib chiqqan bo'lib, “o'zgartirish”, “zamonaviylashtirish” degan ma'nolarni anglatadi [4]. Bir tomondan, innovatsiyani “o'zgarish funksiyasi” sifatida ko'rib, keng falsafiy ma'noda innovatsiya – bu muayyan jarayon yoki tizim holatining o'zgarishi ekanligini ta'kidlash mumkin. Shu ma'noda innovatsiya rivojlanishning muhim kesimini tashkil etadi.

Bu o'rinda innovatsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kechadigan jarayon sifatida ta'riflash o'rinni bo'lib, bunda har bir sohada innovatsion rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Innovatsiya tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan va unga tizimli tavsif bergan Y. Shumpeter o'zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung, 1912) asarida klassik bo'lib qolgan



“beshta tipik o'zgarish”ni ajratib ko'rsatgan. Xorijiy amaliyotda XX asrning 80-yillariga qadar innovatsion jarayonlarni tashkil etishda chiziqli modeldan foydalanilgan. Biroq G'arb modeli mahalliy modellardan innovatsion faoliyatning yakuniy iste'molchiga yo'naltirilganligi bilan farqlangan bo'lib, bu orqali mazkur iqtisodiy kategorianing bozor xarakteri ta'kidlangan.


Fan-texnika taraqqiyoti natijalari innovatsiyalarning hayotiylik davri bosqichlari bo'yicha quyidagicha tavsiflanadi: invensiya (ixtiro qilish va amalda qo'llash), innovatsiya (tatbiq etish va foydalanish), imitatsiya (ko'paytirish va diffuziya).

XX asrning 80-yillaridan boshlab xorijiy tadqiqotlarda innovatsion jarayonning mohiyati izchil (chiziqli) emas, balki parallel tuzilma bilan bog'liq holda, ya'ni nochiziqli kategoriyalar doirasida talqin etila boshlandi. Nochiziqli modellarning shakllanishi, avvalo, innovatsion g'oyalarning ikki manbai – “texnologik turtki” va “talab bosimi”ning o'zaro birlashuvi bilan izohlanadi.

Birinchidan, innovatsion jarayonning boshlanishi har doim ham ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), xususan, fundamental tadqiqotlar bilan bevosita bog'liq bo'lishi shart emas. Xorijiy mualliflarning fikriga ko'ra, innovatsiyalar tashkilotning ichki yoki tashqi muhitidan kelib chiqadigan muayyan muammo yoki imkoniyatlarga javob sifatida vujudga keladi. Shunday qilib, innovatsion jarayonning boshlanishi nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, fan rolining mazmuni tubdan o'zgaradi. U endi nafaqat innovatsion g'oyalar manbai, balki innovatsion jarayonning barcha bosqichlariga kirib boruvchi universal resurs sifatida namoyon bo'ladi. Chunki noaniqlik va bozor kon'yunkturasi tez o'zgarishi sharoitida innovatsion jarayonning istalgan bosqichida qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar va tajribalar zarurati yuzaga kelishi mumkin.

Uchinchidan, innovatsion jarayon elementlarini bog'lovchi sifat jihatidan yangi turdagi aloqalar shakllanadi. Agar chiziqli model uchun asosan to'g'ri aloqalar xos bo'lgan bo'lsa, nochiziqli modelda teskari aloqalar ham muhim ahamiyat kasb etadi va ular innovatsion jarayonning tuzilmasi hamda mexanizmini tubdan o'zgartiradi. Bugungi kunda innovatsion jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ya'ni uning davomiyligini qisqartirish hamda yangiliklarning sifati va samaradorligini oshirish aynan ushbu aloqalarning samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir.




1-rasm. Innovatsiyaning beshta tipik o'zgarishi



Boshqa tomondan, jarayon sifatidagi innovatsiya mahsulot (pirovard natija) sifatidagi innovatsiya tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Innovatsiya mahsulot sifatida, odatda, so'zning tor ma'nosida, predmetli, segmentlangan sohalarda ko'rib chiqiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bizning tadqiqotimiz chegaralari iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan innovatsiyalardir.

Y.Shumpeter fikriga ko'ra, innovatsiya – bu ishlab chiqarishni xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillarni yangicha ko'rinishi hisoblanadi.



2-rasm. Innovatsiyalarning asosiy tarkibi

Xalqaro standartlarga muvofiq, innovatsiya innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- bozorda joriy etilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar va xizmatlar;
- yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullarini amaliy faoliyatga joriy etish.

Ko'rib chiqilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda, innovatsiyalarni tizimlashtirish va ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- innovatsiya-mahsulotlar (yangi mahsulotlar va xizmatlar);
- innovatsiya-jarayonlar (mikrodarajada – yangi texnologik ishlab chiqarish jarayonlari va uni tashkil etish usullari);
- makrodarajada – bozorlar tarkibini o'zgartirish va yangi bozorlarni shakllantirish).

Shunday qilib, aynan innovatsiya-mahsulotlar va innovatsiya-jarayonlar hamda ularni yaratish va joriy etishga qaratilgan faoliyatning pirovard natijalari mazkur tadqiqotning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatlarini chuqur tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Yangilik (novatsiya) – bu fundamental yoki amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar natijasida faoliyatning muayyan sohasida yaratilgan yangi bilim, usul yoki ixtirodir. Yangilikni joriy etish, ya'ni yangi bilim va ishlanmalarning aniq ehtiyojlarni qondirish maqsadida amaliy qo'llanilishi hamda bozor tomonidan e'tirof etilishi uni innovatsiya sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Shu tariqa, innovatsiya yangilikdan (novatsiyadan) shunisi bilan farq qiladiki, yangi mahsulot yoki xizmat bozorga chiqariladi, bozor tomonidan qabul qilinadi va keyinchalik tijorat qiymatiga ega bo'ladi. Demak, innovatsiya (yangilik kiritish) mazkur yangilikning amaliyotga tatbiq etilishi va real iqtisodiy samaradorlikka erishilishini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsiyalar qaysi turga mansub bo'lishidan qat'i nazar, ularni umumiy jihatlar birlashtiradi va ularning mohiyatini ochib beruvchi asosiy xususiyatlar mavjud. Mazkur xossalarni aniqlash orqali ko'rib chiqilayotgan mahsulotlar (xizmatlar, jarayonlar)ning innovatsiya sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Birinchidan, joriy etilayotgan barcha mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan bo'lishi lozim.



Ikkinchidan, yaratilgan mahsulot ishlab chiqarishda amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu esa mazkur yangilikni aniq mahsulotga aylantirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi.

Uchinchidan, yaratilgan mahsulotning ajralmas va eng muhim xususiyati uning iste'molchilarning muayyan ehtiyoj va talablarini qondirish qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, mahsulot bozor talablariga mos kelishi, tijorat yo'li bilan sotilishi hamda pirovard natijada ishlab chiqaruvchiga iqtisodiy foyda keltirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Дашян М.С. Интеллектуальная собственность в бизнесе: изобретение, товарный знак, ноу-хау, фирменный бренд. М.: Эксмо, 2010.
2. Дамодаран А. Инвестиционная оценка: инструменты и методы оценки любых активов. М.: Альпина Паблишер, 2011.
3. Груздева Е.В. Финансирование инновационного бизнеса. М.: МАКС Пресс, 2011. 156 с.
4. Экономика инноваций: учебное пособие. М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2016. 88 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
